


O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-avgust)

2019 yilning yanvar-avgust oylarida O'zbekiston Respublikasida jami **44 356,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **119,1** %ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi

(ulushi, mlrd.so'm)



Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **10 360,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **13,2 %**ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **1,1 %** punktga kamaygan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,7 %**i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,2 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **128,5 %**ni tashkil etgan holda **24 711,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,1 %** punktga kamayib, **20,9 %**ni tashkil etdi va **9 284,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **104,9 %**ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-avgust)

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **2 776,8** mlrd.so'm yoki 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan **155,9%** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **41 579,2** mlrd.so'm ishlar bajarilib, o'sish sura'ti **117,3 %** ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **6,3 %** va **93,7 %**ni tashkil etdi





Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **76,2 %i** yoki **33 803,1** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **9 089,3** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **87,7 %** tashkil etdi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **24 711,1** mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **65,9 %** yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.

Norasmiy sektor hissasiga **8 421,3** mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **90,7 %** yangi qurilish bo'yicha ishlar bajarildi.



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-avgust)

(mlrd.so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'tgan yilga nisbatan, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirish
O'zbekiston Respublikasi	44 356,0	119,1	33 803,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 274,2	130,8	1 648,1
viloyatlar:			
Andijon	2 703,5	113,6	1 850,8
Buxoro	2 921,1	116,5	1 833,4
Jizzax	1 496,7	125	1 193,4
Qashqadaryo	3 019,7	110,8	2 186,3
Navoiy	2 226,9	131,3	1 682,0
Namangan	1 954,1	125,4	1 443,1
Samarqand	2 844,0	119,8	2 240,0
Surxondaryo	2 602,2	121,8	2 205,0
Sirdaryo	939,9	123,5	645,2
Toshkent	2 558,2	134,1	1 898,2
Farg'ona	2 638,7	111,7	1 730,8
Xorazm	1 639,4	115,3	1 330,5
Toshkent sh.	10 073,5	127,8	7 452,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

(ulushi %da)

72,4 %



**Binolar va inshootlarni
qurish bo'yicha qurilish
ishlari**

13,8 %



**Fuqarolik obyektlarini qurish
bo'yicha qurilish ishlari**

13,8 %



**Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **20,6 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **3,3 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,1 %** punktga ko'payib, **49,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **2,5 %** punktga kamayib, **28,4 %**ni tashkil etdi.




■ 2018 yil yanvar - avgust

■ 2019 yil yanvar - avgust

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **40,9 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,7 %** punktga ko'paydi..

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **56,1 %** (**6,7 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **2,6 %**ni (**0,8 %** punktga kamayish) tashkil etdi



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
(jamiga nisbatan %da)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga ko'paydi va 19,1 %ni tashkil etdi. Qolgan 80,9 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.



■ 2018 yil yanvar - iyul

■ 2019 yil yanvar - iyul



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2019 yil (yanvar-avgust)

(mlrd.so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		binolar va inshootlar qurilishi	fuqarolik qurilish ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi	44 356,0	32 132,2	6 119,0	6 104,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 274,2	1 552,4	305,6	416,2
viloyatlar:				
Andijon	2 703,5	1 976,8	255,4	471,3
Buxoro	2 921,1	2 014,6	472,0	434,6
Jizzax	1 496,7	1 169,3	195,5	131,8
Qashqadaryo	3 019,7	2 208,2	376,8	434,8
Navoiy	2 226,9	1 565,4	263,3	398,3
Namangan	1 954,1	1 412,5	176,0	365,7
Samarqand	2 844,0	2 048,0	412,4	383,6
Surxondaryo	2 602,2	1 791,5	661,1	149,6
Sirdaryo	939,9	688,0	155,6	96,4
Toshkent	2 558,2	1 845,7	316,8	395,7
Farg'ona	2 638,7	1 928,2	377,1	333,4
Xorazm	1 639,4	1 299,5	230,6	109,4
Toshkent sh.	10 073,5	6 168,5	1 920,7	1 984,3

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan %da)



Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

Navoiy viloyati (131,3 %):

- "Ko'kpatas " va "Daugiztau" konlarining og'ir rudalaridan oltin qazib olish texnologiyasini takomillashtirish, "Auminzo-Amantay" oltin ma'danlarini koni (5-GMZ) qurilishi (I-II bosqich), "Amudaryo-Zarafshon" suv yo'lining 3- yo`nalishi bo`yicha nasos stansiyasi rekonstruksiyasi;



- "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" M-37 avtomobil yo`lini ta`mirlash;
- Karmana, Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa tumanlarida kanallar, drenajlar va kollektorlar qazish ishlari.

Qoraqalpog'iston Respublikasi (131,0 %):

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 yanvardagi 37-son qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari;
- TQVZ texnogen ajratmalarini qayta ishlash kompleksi qurilishining 1-2 bosqichi. KP 73 dan TQVZ gacha bo'lgan texnologik quvurlarning ichki tarmoqlaridagi suv quvurlarini qurish;
- Xo`jayli va Qo'ng'iroq tumanlarida kollektorlarni qazish , "Hayranli" va "Hatep" kanallarini rekonstruksiya qilish;
- Ellikqal'a tumanida "KT-1", "K-5", "Akchakul", "KT-3", "K-4", "K-11", "Guliston", "K-1 Shortanbay" kollektorlari, shuningdek, Nukus tumanida "Kerdar" kanalini ta`mirlash - tiklash ishlari bo`yicha katta hajmdagi qurilish ishlari bajarildi.

Toshkent shahar (129,2 %):

- Ko'prik va "Yunusobod" metro liniyasi qurilishi, elektr poyezdlar uchun halqa temir yo'l qurilishi, shuningdek, "Angren - Pop" temir yo'l liniyasi atroflarini to'sish;
- Toshkent metropolitenining Sergeli liniyasi qurilishi, Maxtumquli (Taraqqiyot) ko'chalari va Ohangaron yo'li kesishmasida yo'l o'tkazgich qurilishi, yer usti halqa liniyasini qurish ishlari amalga oshirildi;
- "Toshkent city" va "Olmazor city" lar qurilishi;
- Sobiq Toshkent chinni zavodi hududida "Yangi Olmazor" turar-joy majmuasi qurilishi;



- “Oloy” turar-joy binosi qurilishi;
- “Toshkent-Sharqiy” aerodrome asosida zamonaviy fuqaro aeroporti majmuasi qurilishi;
- “Navro`z” bog`ining qurilishi;
- “O`zbekfilm” bin ova inshootlari rekonstruksiyasi;
- Xalqaro islom madaniyati markazi qurilishi.

Namangan viloyati (125,4 %):

- Namangan shahrining Uychi va Yangiobod ko'chalarida ta'mirlash ishlari olib borilmoqda;
- Namangan viloyatining barcha shahar va tumanlarida yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari qurilishi bo'yicha ishlar boshlangan.

Jizzax viloyati (125,0 %):


- Jizzax viloyatining barcha namunaviy turar- joy binolarini tashqi 04/10 kV elektr bilan ta'minlash;

Zafarobod tumanidagi kollektor drenaj tarkibini rekonstruktsiya qilish ishlari;

Paxtakor tumanining “Oqar-Suv” hududidagi “YuR-21” kanalini rekonstruktsiya qilish ishlari.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng kam ulush Xorazm (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,4** %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **76,0** %), Toshkent (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,4** %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **120,9** %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **1,5** %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **109,1** %) to'g'ri keldi.

Государственный комитет
Республики Узбекистан по статистике

Управление статистики инвестиций и
строительства

Ответственный за выпуск:
Контактный телефон:

Ж.Саипов
(71) 230-80-56